
Mustaqillik nemati targ'ib qilinmoqda

Farg'ona shahridagi "Bolalar" istirohat bog'ida "Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda ishtirok etgan O'zbekiston milliy drama teatrlarining aktyorlari - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Muyassar Berdiqulova, Sobirjon Otajonov va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori Gulchehra Matkarimova, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi masul xodimi Sh.To'ychiev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma etti yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori mazmun-mohiyati, istiqlol sharofati, uning xalqimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida gapirib o'tdilar.

Yuqoridagi kabi shahrimiz aholisi bilan yuzma-yuz muloqot Sharqiy harbiy okrugi Ma'naviyat va ma'rifat markazida harbiy qismlar harbiy xizmatchilari va ularning oila ahzolari bilan hamda viloyat shifoxonasida ham yuqori saviyada tashkillandi.

2018-08-29 14:31:10